

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**  
**BUYRUQDAN KO‘CHIRMA**

---

2022-yil “20” 08

№ 01-193

Toshkent sh.

**Talabalarni 2022-2023 o‘quv  
yilida talabalar turar joylariga  
joylashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2022-yil 15-avgustdagi “Respublika oliy ta‘lim muassasalari va akademik litseylarda 2022/2023 o‘quv yilini boshlash to‘g‘risida”gi 271-son buyrug‘ining ijrosini ta‘minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Universitet talabalarini talabalar turar joylariga adolatli tarzda joylashtirish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. TTJga talabalarni joylashtirish bo‘yicha komissiyaning ish vaqti grafigi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Komissiya tarkibi (B.Xoliqov)ga:
  - TTJga joylashish mezonlari haqida universitetning rasmiy veb sahifasida e‘lon berish;
  - 2022-yilning 25-avgustidan 5-sentabriga qadar talabalar turar joylarida yashashga ehtiyoji bo‘lgan talabalardan arizalarni qabul qilish;
  - qabul qilingan arizalar asosida ro‘yxatni shakllantirish;
  - tasdiqlangan ro‘yxat asosida talabalarni turar joylarga joylashtirish va joy ajratilishida quyidagi ketma-ketlikka qat‘iy rioya qilish:
    - ko‘zi ojiz talabalar;
    - I, II guruh nogironlari;
    - ota-onasidan yetim qolgan va mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari bo‘lgan talabalarga;
    - boquvchisidan biri (otasi yoki onasi) ni yo‘qotgan talabalarga;
    - “Temir daftar” ro‘yxatida turuvchi oila farzandlari;
    - bitta oiladan ikki va undan ortiq shartnoma asosida tahsil olayotgan

talabalarga joy ajratish belgilab qo'yilsin.

4. Talabalarni turar joyga joylashtirish rasmiyatchilikdan xoli ravishda belgilangan tartib asosida xolisona amalga oshirilsin.

5. Talabalar uchun oylik to'lov summasi universitet Ilmiy kengashining 2022-yil 25-avgustdagi 1-son yig'ilishi qarori bilan bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 1 barobari miqdorida belgilansin.

6. Ijara shartnomasida belgilangan tartib asosida ijara haqi to'langandan so'ng talabalarni xonalarga joylashtirish yo'lga qo'yilsin.

7. Talabalar turar joylaridagi tarbiyachi-murabbiylarning faoliyati samarali tarzda tashkil etilsin.

8. **Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat-ma'rifat bo'limi boshlig'i (A.Ikromov) va bosh hisobchi (J.Aminov)ga:** Talabalar turar joyi uchun ariza topshirgan, biroq arizasi qanoatlantirilmagan talabalarning oilaviy sharoiti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 605-son qaroriga mos bo'lsa, ijara shartnomasi taqdim etgan taqdirda ijara haqining 50%i miqdori (BHMning 1 barobaridan oshmagan holda) davlat budjetidan qoplab berilishi ta'minlansin.

9. Ushbu buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor B.A.Xoliqov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor

Sh.Sirojiddinov

Asliga to'g'ri



*(Handwritten signature in blue ink)*



Universitetning 2022-yil "20" "08" dagi  
"01-193" -son buyrug'iga  
1-ilova

**Talabalar turar joylariga talabalarni joylashtirish bo'yicha  
tuzilgan universitet komissiyasi  
TARKIBI**

<b>№</b>	<b>F.I.SH</b>	<b>Lavozimi</b>
<b>Universitet komissiyasi a'zolari</b>		
1.	Xoliqov Bahodir	Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, komissiya raisi
2.	O'tanov Baxrom	Rektor maslahatchisi
3.	Abdug'ani Nasriddinov	"Komplayens-nazorat" bo'limi boshlig'i
4.	Abdushukurov Baxtiyor	O'zbek filologiyasi fakulteti dekani, a'zo
5.	Raupova Laylo	O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultet dekani, a'zo
6.	Qodirov Ahror	Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakultet dekani, a'zo
7.	Muhamedova Saodat	Amaliy filologiya fakultet dekani, a'zo
8.	Aminov Jonibek	Universitet bosh hisobchisi, a'zo
9.	Ikromov Akmal	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i
10.	Jo'rayeva Gulnoza	Universitet xotin-qizlar kengashi raisi, a'zo
11.	Olimjanov Orifjon	Universitet Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi, kotib



Universitetning 2022-yil " 20 " " 08 " dagi  
" 01-193 " -son buyrug'iga 2-ilova

**2021/2022 o'quv yilida talablar turar joylarida talabalarni joylashtirish  
bo'yicha tuzilgan maxsus komissiya a'zolarining ish vaqti  
JADVALI**

<b>№</b>	<b>Fakulteti</b>	<b>Sanasi</b>	<b>Hafta kunlari</b>	<b>Vaqti</b>	<b>Hujjatlarni qabul qilish joyi</b>
1.	O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti	06.09.2022	Seshanba	14.00-16.00	308-xona
2.	O'zbek filologiyasi fakulteti	07.09.2022	Chorshanba	14.00-16.00	308-xona
3.	Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti	08.09.2022	Payshanba	14.00-16.00	308-xona
4.	Amaliy filologiya fakulteti	09.09.2022	Juma	14.00-16.00	308-xona



**TALABALAR TURAR JOYIGA JOYLASHISH BO‘YICHA  
TARTIB**  
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI TALABALAR TURAR JOYI QUYIDAGI  
TOIFALARGA MANSUB I, II KURS TALABALARGA TAQDIM  
ETILADI:**

1. To‘liq davlat ta‘minotidagi talabalar (chin yetim).
2. Nogironligi mavjud bo‘lgan talabalar(I, II guruh)
3. Boquvchisini yo‘qotgan talabalar (otasi yoki onasi vafot etgan)
4. Oilasi “Temir daftar”da qayd etilgan talabalar.
5. Oilasida ikki va undan ortiq to‘lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar.
6. Ota-onasi I, II guruh nogironi bo‘lgan talabalar.

**USHBU TOIFAGA MANSUB TALABALAR ARIZASIGA QUYIDAGI  
HUJJATLARNI ILOVA QILISHI ZARUR:**

*(ketma-ketlik yuqoridagi ro‘yxat bo‘yicha tuzilgan)*


1. Ota-onasining o‘lim haqidagi guvohnomasi.
2. Nogironlikni tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi.
3. Boquvchisini yo‘qotgan talabalar boquvchisining o‘lim haqidagi guvohnomasi nusxasi (otasi yoki onasining o‘lim guvohnomasi nusxasi).
4. Oilasi “Temir daftar”da qayd etilgan talabalar o‘zi yashaydigan MFY yoki QFY qaysi sektorga mansub bo‘lsa, ana shu sektor yoki hududiy Iqtisodiyot boshqarmasining “Temir daftar” bo‘yicha yagona platformasidan skrinshot va oila boshlig‘ining shaxsni tasdiqlovchi hujjati nusxasi.

*Boshqa biron hujjat asos sifatida qabul qilinmaydi.*

5. Oilasida kunduzgi ta‘lim shaklida ikki va undan ortiq to‘lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan talabalar yaqin qarindoshining (yaqin qarindosh deganda, **aka, uka, opa, singil nazarda tutiladi**) tahsil oladigan oliy ta‘lim muassasasi tomonidan berilgan ma‘lumotnoma hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatidan nusxa taqdim etishi lozim. Oliy ta‘lim muassasidan taqdim etilgan ma‘lumotnomada talabaning davlat granti yoki to‘lov-shartnoma asosida tahsil olishi aniq qayd etilishi lozim.

6. Ota-onasi I, II guruh nogironi (mehnatga yaroqsiz) bo‘lgan talabalar otasi (yoki onasining) nogironlik guvohnomasidan nusxa hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjatining nusxasini ilova qiladi.

**Izoh:** Yuqoridagi ustuvorlik bo‘yicha TTJ taqdim qilinadi. Agar joylar taqdim etib bo‘lingach, mazkur mezonga tushadigan, lekin TTJda o‘rin yetmagan talabalarning ijara to‘lovining 50%i ijara shartnomasi taqdim etgan taqdirda davlat budjetidan qoplab beriladi.



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI TALABALAR TURAR JOYI  
QUYIDAGI TOIFALARGA MANSUB III, IV KURS TALABALARGA  
TAQDIM ETILADI:**

1. To‘liq davlat ta‘minotidagi talabalar (chin yetim).
2. Nogironligi mavjud bo‘lgan talabalar(I, II guruh)
3. Boquvchisini yo‘qotgan talabalar (otasi yoki onasi vafot etgan).

**USHBU TOIFAGA MANSUB TALABALAR ARIZASIGA QUYIDAGI  
HUJJATLARNI ILOVA QILISHI ZARUR:**

*(ketma-ketlik yuqoridagi ro‘yxat bo‘yicha tuzilgan)*

1. Ota-onasining o‘lim haqidagi guvohnomasi.
2. Nogironlikni tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi.
3. Boquvchisini yo‘qotgan talabalar boquvchisining o‘lim haqidagi guvohnomasi nusxasi (otasi yoki onasining o‘lim guvohnomasi nusxasi).

**Izoh:** Oilasi “Temir daftar”da qayd etilgan, oilasida ikki va undan ortiq to‘lov-shartnoma asosida talaba o‘qiydigan, oilasida mehnat migrant mavjud bo‘lgan; ota-onasidaning nogironligi mavjud bo‘lgan III, IV kurs talabalari zaruriy hujjatlarni taqdim etganda ijara to‘lovining 50% miqdori davlat budjetidan qoplab beriladi (Toshkent shahrida BHMning 1 barobaridan oshmagan miqdorda).

---

**Izoh:** Universitet rektorining buyrug‘iga muvofiq, o‘tgan o‘quv yillarida faollik ko‘rsatgan talabalarga ham TTJ taqdim qilinadi.

---

**Izoh:** TTJ bo‘yicha belgilangan qoidalarni bajarmagan, ichki tartib-qoidani buzgan talabalar TTJdan chetlatiladi.

---